

MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA YOSH TADBIRKORLARNING TUTGAN O'RNI.

TDIU "Iqtisodiy statistika" kafedrası

Dots. Akbarova Barno Shuxratovna

e-mail: b.akbarova@tsue.uz

Annotatsiya ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotida yosh tadbirkorlarni salmog'i, qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan bir qancha chora tadbirlar va ularga berilayotgan imkoniyatlar to'g'risida ma'lumotlar tahlili berilgan.

Kalit so'zlari yosh tadbirkor, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kelajak avlod, mamlakat, iqtisodiyot

Аннотация В статье представлен анализ информации о ряде мер, принимаемых для поддержки молодых предпринимателей, и ряде возможностей, предоставляемых им.

Ключевые слова: молодой предприниматель, малый бизнес, частное предпринимательство, будущее поколение, страна, экономика

Annotation This article provides an analysis of data on the role of young entrepreneurs in the country's economy, a number of measures being taken to support them, and the opportunities provided to them.

Keywords: young entrepreneur, small business, private entrepreneurship, future generation, country, economy

Kirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar

faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari hamda xotin-qizlar tadbirkorligini kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor bilan yondashilyapti. Yurtboshimiz rahnamoligida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yoshlarimizning o'z biznes loyihalarini hayotga tatbiq etishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Yoshlar tadbirkorligining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini o'rgangan bir qator olimlar va tadqiqotchilar mavjud. Masalan:

J.B. Xodjaev "Yoshlar tadbirkorligi loyihalarini qo'llab-quvvatlash masalalari" mavzusidagi maqolasida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning mohiyati va ahamiyatini yoritgan. U, shuningdek, yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida ajratilgan kreditlar va bandligi ta'minlangan yoshlar sonini tahlil qilgan¹.

Maxbuba Raupova "Yoshlar tashkilotlari va mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmalarining tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni" mavzusidagi tadqiqotida yoshlarni ish bilan ta'minlash va ular o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini keng yo'lga qo'yishda yoshlar tashkilotlari va mahalla boshqarmalarining o'rni va vazifalarini tahlil qilgan².

G.G. Jamalova va F.F. Nigmatullaev "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion g'oyalarning ahamiyati" mavzusida tadqiqot olib borishgan. Ular yoshlarning o'z biznes g'oyalarini amalga oshirishlari uchun yaratilgan sharoitlar va hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralarini tahlil qilishgan³.

¹ eyib.uz

² interonconf.org

³ journal.tsue.uz

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida statistik kuzatish, jamlash, tanlanma kuzatish va tahlil qilish usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlikni rivojlantirish va rag'batlantirishga oid farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "Kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash" to'g'risidagi qarorlari mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratdi. Ushbu qonuniy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi, ularning iqtisodiy salohiyatini to'liq namoyon etishlari va mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishlari uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Tadbirkorlar soni tobora ko'payib, ular xalq xo'jaligining turli sohalarida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga, shuningdek, hududlarning kundalik ehtiyojlari va iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talabni to'liq qondirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Hukumat tomonidan inson omiliga qaratilgan e'tibor va islohotlar natijasida yaratilgan sharoitlar tadbirkorlar tomonidan ongli ravishda qabul qilinmoqda va ularning faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishiga imkon yaratmoqda.

Texnikum va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasida chuqur bilimli, yuqori malakali va innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarda ishtirokini ta'minlash bizning birinchi navbatdagi vazifamizdir. Buning sabablari quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'i 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardan iborat;

2. Bugungi yoshlar ertangi kunimiz va kelajagimizning asoschilaridir;

3. Bozor iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi tadbirkorlik faoliyati o'z tabiatiga ko'ra tavakkalchilik, harakatchanlik va ishbilarmonlik kabi fazilatlarni talab qiladi, ular ko'pincha yoshlarda uchraydi;

4. Inson mehnatining unumdorligi va ijodiy qobiliyati yoshlik davrida eng yuqori darajada bo'ladi.

Jamiyatimizda ko'p tarmoqli iqtisodiyotning shakllanishi va xususiy tadbirkorlik sektorining rivojlanishi yoshlarga erkin kasb tanlash va istalgan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, ularning iqtisodiyotda sog'lom raqobat manbai sifatida kichik korxonalar tashkil etishdagi roli bu borada katta salohiyatga ega.

Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik yoshlarimizning iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlikni amalga oshirish borasidagi huquqiy va iqtisodiy bilimlari hali yetarli emas. Ba'zida bu faoliyatga intilish bo'lsa-da, ma'lum maslahatlar, yo'l-yo'riq va moliyaviy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi sezilmoqda. Shu bois, yoshlarning iqtisodiy faolligini yanada oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhimdir:

1. Maktablar, o'rta-maxsus ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy va huquqiy ta'limni yanada kuchaytirish.
2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida yoshlar uchun ijodiy markazlar, loyihalashtirish va texnologik byurolar, ilmiy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish bo'limlarini tashkil etish.
3. Respublikadagi yoshlar bilan shug'ullanuvchi muassasalar, jamoat tashkilotlari va huquq-tartibot idoralarining faoliyatini ularning maqsadlari asosida jonlantirish.
4. Mamlakatimizdagi korxonalar bilan o'quv yurtlaridagi kelajakdagi mutaxassislar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.
5. Korxonalarda yoshlarning ijodiy va ichki salohiyatini to'liq namoyon etishlari, moddiy, madaniy va maishiy ehtiyojlarini qondirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

6. Respublika shahar va tumanlaridagi bandlik xizmatlari faoliyatida yoshlarga alohida e'tibor berish, ularning o'ziga xos ijtimoiy guruh sifatidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda turli yo'nalishdagi xizmatlarni tashkil etish.

Yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yoshlarning mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishdagi hissasini oshirishda, shuningdek, ularni milliy mafkura va umumxalq manfaatlarining faol himoyachilariga aylantirishda muhim rol o'ynaydi.

Barkamol avlodni tarbiyalash istiqlol yillarida xalqimiz uchun eng ulug' maqsad va umummilliy vazifaga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar tadbirkorligining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini bir necha bor ta'kidlagan. Masalan, 2025 yil 14 fevralda yoshlar bilan suhbatda u shunday degan: "O'tgan 8 yil ichida yosh tadbirkorlar soni uch baravar ko'payib, ular bugungi kunda biznes vakillarining qariyb 40 foizini tashkil etmoqda." Bu so'zlar yoshlar tadbirkorligining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini va uni qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ko'rsatadi.

Yoshlarni innovatsion faoliyatga asoslangan kichik biznesga jalb etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Yoshlar tomonidan ilmiy g'oyalar va ixtirolar yaratishni rag'batlantirish;
- Yoshlarning ilmiy g'oyalar va ixtirolarini amalga oshirishni ta'minlovchi ixtisoslashtirilgan loyihalashtirish korxonalarini faoliyatini kengaytirish;
- Kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari talabalari ko'p bo'lgan mehnat jamoalariga innovatsion biznes-rejalarni imtiyozli shartlarda taqdim etish;
- Yosh mutaxassislarning ilmiy g'oyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etishini rag'batlantiruvchi va muvofiqlashtiruvchi muassasalar faoliyatini faollashtirish;
- Respublika miqyosida yoshlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy g'oyalar va ishlanmalar tanlovini tashkil etish;
- Yoshlarning ilmiy g'oyalar, ixtirolar va ishlanmalarini imtiyozli shartlarda patentlash.

Prezidentimizning farmonlari va qarorlariga asosan yoshlarning tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarning ahamiyati juda katta. Bu orqali yoshlar nafaqat o'zlarini, balki tengdoshlarini ham ish bilan ta'minlamoqda.

2023 yilning 9 oyi davomida 121 ming 547 nafar yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2 trillion 438 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi. Tadbirkorlikka qiziqqan yoshlarning innovatsion, startap va biznes loyihalarini moliyalashtirish tizimi yaratildi. Ushbu yo'nalish bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqilib, 91 nafar yoshlarning 44,3 milliard so'm qiymatdagi istiqbolli loyihalari moliyalashtirildi.

O'tgan davr mobaynida 95 ming nafar yosh doimiy ish o'rinlariga joylashtirildi. Ularga zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rgatishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tartibi – “Kelajak kasblari” loyihasi joriy etildi.

Shuningdek, “Ishga marhamat” monomarkazlari va kasb-hunar o'quv markazlari orqali 43 ming 554 nafar yosh kasb-hunarga o'qitildi. Yoshlarni kelajakda mehnat bozorida talabga ega bo'lgan kasblarga yo'naltirish maqsadida “SkillsCamp” loyihasi ham o'z samarasini bermoqda.

Mazkur loyiha doirasida IT, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, media, PR, SMM, turizm, brending, xorijiy tillar, biznes, startap, ta'lim, pedagogika, xalqaro huquq va munosabatlar, moliya, iqtisod, arxitektura va landshaft sohalariga qiziqqan ming nafar yosh qamrab olindi.

2023 yildan boshlab “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida tikuvchilik, sartaroshlik, oshpazlik, qandolatchilik va hunarmandchilik sohalarida “Kasblar tanlovi” tashkil etilib, 4 ming 160 nafar ishtirokchi uchun 9 milliard 160 million so'm miqdorida rag'batlantirish mablag'lari ajratildi.

Bundan tashqari, qishloq joylarda ishsiz yoshlarning daromad manbai yaratish orqali bandligini ta'minlash maqsadida zaxiraga qaytarilgan er maydonlarini 0,10 gektardan 1

gektargacha bo'lgan o'lchamlarda ochiq elektron tanlov orqali 30 yilga ijaraga berish tizimi joriy etildi.

Joriy yilning 9 oyi davomida 79 ming 594 nafar yoshga 29 ming 534 gektar er maydoni 30 yilga ijaraga berildi. Shuningdek, norasmiy sektorda band bo'lgan 501 ming nafar yosh ijtimoiy, sanoat, qishloq xo'jaligi, axborot-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida o'zini-o'zi band qilishga erishdi.

Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan tizimli islohotlarning asosiy maqsadi yoshlarni qo'llab-quvvatlash, yosh tadbirkorlarga faoliyatini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yangi ish o'rinlari ochish, ularning bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini oshirishda, balki mamlakatimiz uchun juda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini ko'paytirish masalalarini hal etishda ham yetakchi rol o'ynaydi. Bunda asosan huquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning bu sohasi uchun barqaror shart-sharoitlar, imtiyozlar va kreditlar tizimini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida bu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bunday dasturlar asosida hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samaraliroq foydalanishga imkon beruvchi tuzilma o'zgarishlarini amalga oshirish lozim.

Xulosa.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustaqil iqtisodiy sohaga aylantirishni ta'minlashga harakat qilishimiz lozim. Zero, davlatimiz rahbari qayd etganidek, "kichik biznesni ixcham va xarakatchanligi, bozor konekturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olishi uni jahon iqtisodiy inqirozi

davrida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylandi".

Qo'shimcha takliflar:

- Yoshlarning innovatsion loyihalarini moliyalashtirish uchun xususiy va davlat hamkorligini kuchaytirish.
- Xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish.
- Yoshlar uchun ment

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G.G. Jamalova va F.F. Nigmatullaev. "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion g'oyalarning ahamiyati". Архив научных исследований, 2(1), 2022. journal.tsue.uz
2. J.B. Xodjaev. "Yoshlar tadbirkorligi loyihalarini qo'llab-quvvatlash masalalari". Educational Yield Insights & Breakthroughs, 2, 2024. eyib.uz
3. O'. Djamolov. "O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati". JIZPI Xabarnomasi, 1(3), 2024. jurnal.jizpi.uz
4. H.Okyulov. "Yoshlar tadbirkorligi – mamlakatimiz iqtisodiy rivojining drayveri". O'zA, 2024.
5. B.Akbarova O'zbekistonda kichik tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qullab-kuvvatlash mexanizmlarini statistik urganish //Архив научных исследований. – 2019.
6. <https://aniq.uz/yangiliklar/yoshlar-tadbirkorligi-uchun-yangi-imkoniyatlar>